



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Pulotov Abdurayim Murotovich<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Navoiy viloyati XTXQTMO hududiy markazi O'quv va ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, pedagogika fanlari nomzodi ([abdurayimp@mail.ru](mailto:abdurayimp@mail.ru))

## UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISH TIZIMINI TASHKIL QILISHNING ILMIIY-USLUBIY JIHLTLARI

**Annotatsiya.** Maqolada xalq ta'limi xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini raqamli boshqarishning ilmiy-uslubiy jihatlari ochib berilgan. Zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarning uzluksiz malaka oshirish jarayoniga kirib kelishi, fanlarni o'qitishning yangicha shakllari va baholashning zamonaviy usullarini qo'llashning ayrim jihatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Malaka oshirish, raqamli boshqaruv, imitatsiya.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются научно-методические особенности цифрового управления системы непрерывного повышение квалификации кадров народного образования. Представлены некоторые аспекты современных педагогических и цифровых технологий, новых форм и методов обучения, применение современных методов оценки в процессах повышении квалификации кадров народного образования.

*Ключевые слова. Повышение квалификаций, цифровое управление, имитация.*

**Abstract.** In this article are considering the scientific and methodological aspects of digital management of public education staff professional development system. Some aspects of modern pedagogical and digital technologies, new forms and methods of teaching, using the modern assessment methods in training processes are presented.

**Keywords.** *Professional development, digital management, imitation.*

Umumiy oʻrta taʼlim muassasalari pedagog-xodimlarining uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil qilish raqamli texnologiyalar bilan uzviy bogʻliq jarayon hisoblanadi. Boshqacha aytganda, uzluksiz malaka oshirish tizimida bilim oluvchining har bir harakati axborot olish va uzatish yoki undan samarali foydalanish, uni mustaqil oʻrganish, oʻzlashtirish, xotirada saqlash va boyitishdan iborat.

Umumiy oʻrta taʼlim muassasalari pedagog-xodimlarining uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil qilishga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi oʻqituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish taʼlim muassasalarida oʻqitish jarayonini samarali tashkil etish va tinglovchilar bilim darajasini haqqoniy baholashga boʻlgan eʼtiborni oshirib bormoqda.

Oʻquv jarayonida foydalanilayotgan texnik vositalar va texnologiyalar har xil boʻlishiga qaramasdan, oʻquv materialini taqdim etish shakli va vositalariga bogʻliq ravishda oʻqitish sifati yuqori yoki qoniqarli darajada boʻlishi mumkin [1].

#### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.**

Zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarning uzluksiz malaka oshirish jarayoniga kirib kelishi, fanlarni oʻqitish shakl va metodlarini, uning mazmuniga mos holda takomillashtirish, sifatini hamda samaradorligini oshirish va tinglovchilar tomonidan oʻzlashtirishini nazorat qilish shuningdek, baholash jarayonlarini raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etishni taqozo qiladi.

Ushbu zaruriyatlardan kelib chiqib, uzluksiz malaka oshirish tizimi asosida oʻquv jarayonini tashkil etish va raqamli boshqarish, tinglovchilar bilimini aniqlashda pedagogik prognostika usullaridan foydalanish, tinglovchilarning fanga oid bilimlarini oʻzlashtirish

jarayonida ta'sir etuvchi omillar va ularni nazorat qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish Davlat talablari asosida o'rganilmoqda.

Tahlil qilingan ilmiy-uslubiy adabiyotlar va olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlariga muvofiq pedagog-xodimlar uzluksiz malaka oshirishining raqamli boshqarish tizimini tashkil etishda quyidagi asosiy maqsadlarni keltiramiz [2]:

- mutaxassisligi bo'yicha pedagog-xodimlar bilim, ko'nikma va malakasini oshirish;
- pedagog-xodimlarni mutaxassislik fanining alohida bo'limlari bo'yicha o'qitish va imtihon qabul qilish;
- alohida fanlardan pedagog-xodimlarni attestatsiyalarga tayyorlash;
- mutaxassislik faniga oid bilimlarni chuqur o'rgatish;
- pedagog-xodimlarning bilim, ko'nikma va malakasi orasidagi uzviylikni ta'minlash, fanga oid kompetensiyasini shakllantirish.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog-xodimlarining uzluksiz malaka oshirish tizimi - bu ananaviy va masofaviy ta'lim shakllaridan farq qiluvchi yangi ta'lim shaklidir. U o'zida masofaviy ta'lim shaklini aks ettirish bilan bir qatorda pedagog-xodimlarining o'zaro aloqasini ham namoyon etadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog-xodimlarining uzluksiz malaka oshirish tizimini raqamli boshqarishni tashkil etish quyidagi uch bosqichdan iborat (1-rasm):


Birinchi bosqich. Uzluksiz malaka oshirish tizimini raqamli boshqarish jarayonini tashkil etish, unga qo'yiladigan talablarni belgilash, shartlarni aniqlash, muammoni yechish metodlarini tanlash.

Ikkinchi bosqich. Uzluksiz malaka oshirish tizimini raqamli boshqarishni tashkil etishda va kerakli ma'lumotlarni yig'ishda, qayta ishlashda hamda muammoning parametrlarini aniqlab, ular orasidagi funksional bog'liqlikni aniqlanishi asosida uni raqamli boshqarishga yuqori malakali pedagog va tizimli-dasturchi mutaxassislarni jalb etish.

Uchinchi bosqich. Uzluksiz malaka oshirish tizimini raqamli boshqarish jarayonini tashkil etish. Bunda uzluksiz malaka oshirish jarayonini boshqarish uslublari, rejaları tuziladi, mavjud malaka oshirish jarayoni uslublaridan foydalanish hamda raqamli

boshqarish texnologiyasi ishlab chiqish.

Uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil etishning asosiy maqsadi - umumiy oʻrta taʼlim muassasalari pedagog-xodimlarining faoliyatini maqbul rejalashtirish, taʼlim jarayoni maqsadi va vazifasini aniq qoʻyish, uzluksiz malaka oshirish tizimi va pedagog-xodim oʻrtasida faol aloqani oʻrnatishda kerakli oʻquv materiallari bilan taʼminlash, pedagog-xodim va oʻquv materiallari orasida qayta aloqa oʻrnatish, individual taʼlim tizimini tashkil qilish imkoniyatlarini yaratishdan iborat.



### **1-rasm. Pedagog-xodimlarning uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil etish tuzilmasi.**

Tashkil qilinayotgan uzluksiz malaka oshirish tizimining vazifalari quyidagilardan iborat:

- pedagog-xodimga yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish imkoniyatini yaratish;
- internet tarmog‘idan kerakli ma’lumotlarni izlab topish qulay usullari va vositalarini taqdim etish;
- o‘quv va ilmiy adabiyotlar, me’yoriy hujjatlar axborot manbalarining manzillaridan samarali foydalanishni tashkil qilish;
- elektron o‘quv adabiyotlar va ma’lumotlar banki bilan ishlashga, topshirishlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishni shakllantirish.

Uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil etishda taklif etilayotgan boshqarish imitatsion modellashtirish jarayoniga asoslangan bo‘lib, u quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Parametrlarning o‘zgarish sohalarini aniqlash - tizimda qanday parametrlar ishlatilishi, ularning o‘lchov birliklari va o‘zgarish sohalari aniqlanadi.
2. Muammo modelini tuzish - bu bosqichda haqiqiy voqelik, ya’ni ta’lim jarayoni borishining mantiqiy sxemasi tuziladi, u fizik va matematik qonuniyatlar bilan ifodalanadi. Modelni tuzishdan maqsadni aniqlash va uni matematik ifodalash zarur. Tabiatdagi har qanday voqelikni to‘liq modellashtirib bo‘lmaydi. Shuning uchun model ayrim chetlanishlar va cheklanishlar bilan tuziladi.
3. Ma’lumotlarni tayyorlash - modelni qurish jarayonida kerakli ma’lumolarni yig‘ish va ularni qo‘llash jarayoniga moslashtirish tufayli amalga oshiriladi.
4. Uzluksiz malaka oshirishni tashkil etish rejasini tuzish - bu bosqichda malaka oshirishni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan va unga yordam beradigan ma’lumotlarni yig‘ish usullari ishlab chiqiladi.
5. Uzluksiz malaka oshirishni tashkil etish usulini aniqlash - tajriba asosida har bir modulni o‘rganishning usul va uslublari aniqlanadi.

6. Imitatsiya jarayoni - bu bosqichda muammo yechimini beruvchi ma'lumotlar aniqlanadi.

7. Natijalar tahlili - uzluksiz malaka oshirish asosida aniqlangan ma'lumotlar nazariy jihatdan amaliyot bilan taqqoslanadi.

8. Amaliyotda qo'llash - bu bosqichda imitatsiya jarayonida aniqlangan ma'lumotlar haqiqiy voqelikka yaqin bo'lsa, ushbu model uzluksiz malaka oshirish masalalarini hal qilishda qo'llaniladi.

9. Natijalarning yetarli bo'lishi - yaratilgan model asosida olingan natijalarning haqiqiy natijaga yaqinligiga ishonch hosil qilinadi.

### **Tahlil va natijalar.**

Amaliy tadqiqot ishlari tahlili asosida quyidagi natijalarga kelish mumkin [3]:

- uzluksiz malaka oshirish bir vaqtning o'zida bir necha muammolarni yechish imkoniyatini yaratadi;

- tinglovchining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

- tinglovchilarning o'zaro muloqot qilish imkoniyatini yaratadi;

- tinglovchi nerv tizimini erkin faoliyat ko'rsatishiga imkoniyat yaratiladi.

Yuqoridagilarni nazarda tutgan holda, pedagogik tadqiqotlarni uzluksiz malaka oshirish tizimiga yo'naltirish asosida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur:

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim berishda ta'lim-tarbiyaning mohiyati va muammolarini ko'pbosqichli ilmiy yondashuv asosida ishlab chiqish;

- ishlab chiqilgan tizim texnologiyalarini tahlil qilish asosida uzluksiz malaka oshirish tizimi texnologiyalarini yangilab, boyitib borish;

- pedagog-xodimning uzluksiz malaka oshirish faoliyatini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida milliy ta'lim-tarbiya tizimi qonunlariga moslashtirish.

### **Xulosa va takliflar.**

Xulosa qilib aytganda, pedagog-xodimning uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil etishdan maqsad – o'zaro uzviy bog'liq ta'lim muassasalari (maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish,

maktabdan tashqari ta'lim muassasalari) uchun yaxlit uzluksiz malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yishdan iborat.

Uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil etishda muayyan fan(mutaxassislik)ning hususiyatlarini, shuningdek, pedagog-xodimning o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish taklif qilinadi [4]:

- berilgan nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari, elektron darsliklar va internet tizimi yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat, kurs ishi, tavsiya va boshqa metodik materiallar) tayyorlash;
- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- malakaviy bitiruv ishi va malaka ishini tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarni yechimini topish; maket, model va namunalarni yaratish;
- ilmiy maqolalar tayyorlash;
- ilmiy anjumanlarga ma'ruza matnlarini va tezislarini tayyorlash.

O'rganilayotgan fanning hususiyatlaridan kelib chiqqan holda uzluksiz malaka oshirish tizimini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanilishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Fayziev, M. (2020). Methods of teaching the "operators" section in the teaching of pascal programming language on the basis of a logical scheme of concepts. [Journal of Critical Review](http://www.jcreview.com/fulltext/197-1596870648.pdf?1597229253), 2056-2060. <http://www.jcreview.com/fulltext/197-1596870648.pdf?1597229253>
2. Pulotov A.M. Oliy o'quv yurtlarida mustaqil ta'lim olishning ilmiy-uslubiy jihatlari. // Uzluksiz ta'lim jurnali. -2007. - № 2. – 14-17 betlar.
3. Pulotov A.M. Scientific-methodological aspects of uninterrupted in-service training based on the principle "lifelong learning". // [ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal](https://saarj.com/wp-content/uploads/ACADEMICIA-DECEMBER-2020-FULL-JOURNAL.pdf). ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 12, December 2020. URL: <https://saarj.com/wp-content/uploads/ACADEMICIA-DECEMBER-2020-FULL-JOURNAL.pdf>.





4. Пулотов А.М. Инновационный подход к профессиональной подготовке педагогов дошкольных образовательных организаций. // Вопросы дошкольной педагогики. - 2020. - № 9 (36). - С. 3-6. - URL: <https://moluch.ru/th/1/archive/179/5669/>.